

## XORAZMDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA DAVRIY NASHRLARDAGI URUSHGA BO'LGAN MUNOSABAT

**Matyaqubov Oybek Ziynat o'g'li**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Magistratura bo'limi Tarix mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20401368>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyatida chop etilgan davriy nashrlar – gazeta va jurnallar sahifalarida urushga bo'lgan munosabatning yoritilishi tahlil etiladi. Maqolada mazkur davr matbuotining urush voqealarini aks ettirishdagi uslublari, mavzular tanlovi, hamda axborotning ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatlardagi mazmuni chuqur o'rganiladi. Shuningdek, nashrlar orqali jamiyatda shakllangan ruhiy kayfiyat, xalqning urushga nisbatan fikr-mulohazalari, hamda matbuot vositalarining ma'naviy tarbiya va safarbarlikdagi roli alohida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ikkinchi jahon urushi, xorazm haqiqati, xorazm, davriy nashrlar, urushga bo'lgan munosabat, gazetalar, sobiq sovet ittifoqi, axborot siyosati.

## ОТНОШЕНИЕ К ВОЙНЕ В ПЕРИОДИЧЕСКИХ ИЗДАНИЯХ ХОРЕЗМА В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

**Аннотация.** В данной статье анализируется освещение отношения к Великой отечественной войне в периодических изданиях, выпускавшихся в Хорезмской области в годы войны. Рассматриваются особенности отражения военных событий в прессе того времени, выбор тем, а также социально-политическое и культурное содержание публикуемых материалов. Особое внимание уделено тому, как через газеты и журналы формировалось общественное настроение, выражались мнения населения относительно войны и какова была роль средств массовой информации в духовно-нравственном воспитании и мобилизации общества.

**Ключевые слова:** Вторая мировая война, «Хоразм хакикати», Хоразм, периодические издания, отношение к войне, газеты, Советский Союз, информационная политика.

## THE ATTITUDE TOWARD THE WAR IN KHOREZM PERIODICALS DURING WORLD WAR II

**Abstract.** This article analyzes how the attitude toward World War II was portrayed in the periodicals published in the Khorezm region during the wartime years. It examines the stylistic approaches of the press in representing war events, the selection of topics, and the socio-political and cultural content of the published materials. Special attention is given to how newspapers and magazines contributed to shaping public sentiment, reflecting the people's views on the war, and how the media played a role in moral education and mobilization.

**Keywords:** World War II, Khorazm Haqiqati, Khorazm, periodicals, attitude towards the war, newspapers, Soviet Union, information policy.

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) insoniyat tarixidagi eng yirik va halokatli urushlardan biri bo'lib, uning ta'siri nafaqat frontdagi janglar, balki front ortidagi ijtimoiy-siyosiy

hayot bilan ham chambarchas bog‘liq edi. Urush boshlanganidan so‘ng xalqni ruhlantirish, urush jarayonlari haqida axborot yetkazish va ma‘lum siyosiy maqsadlarga erishish uchun ommaviy axborot vositalari, xususan, davriy nashrlar muhim rol o‘ynagan. Urush voqealarini yoritishdagi asosiy vazifalardan biri – aholining xabardorligini oshirish, dushman qiyofasini salbiy tarzda shakllantirish, xalqni safarbar etishga undash va eng muhimi, urushning S Sovet Ittifoqi foydasiga yakunlanishiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashdan iborat edi. Bu vazifalarni amalga oshirishda gazeta va jurnallar orqali g‘oyaviy, siyosiy mazmundagi materiallarni tarqatish muhim ahamiyat kasb etgan.

Sobiq Sovet Ittifoqining markaziy hamda hududiy nashrlarida urushga oid materiallar, asosan, aholining vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish, frontdagi harbiy muvaffaqiyatlar bilan ilhomlantirish va yurt mudofaasiga hissa qo‘shishga da‘vat etish kabi vazifalarni bajarishga qaratilgan edi. Xususan, Xorazm hududida chop etilgan gazetalar va jurnallar ham aynan shu yo‘nalishda faoliyat yuritgan. Mahalliy matbuot nafaqat frontdagi voqealar haqida, balki front ortida mehnat qilayotgan insonlarning fidokorona faoliyati, xalqning harbiy harakatlarga moddiy va ma‘naviy ko‘magi haqida ham keng yoritmalar bergan.

Urush davrida Xorazmda chop etilgan davriy nashrlarda urush manzarasi turlicha tasvirlangan. Bir tomondan, Sobiq Sovet armiyasining g‘alabalari haqida ilhomlantiruvchi maqolalar, urushning muvaffaqiyatli tugashiga ishonchni mustahkamlovchi materiallar berilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, front ortidagi mashaqqatli mehnat, frontga ketgan fuqarolarning oilaviy taqdiri, iqtisodiy qiyinchiliklar, turmush sharoitining og‘irlashgani va milliy masalalarga oid muammolar ham aks ettirilgan. Bu orqali nashrlar urushning jamiyat hayotiga ko‘rsatgan keng qamrovli ta‘sirini ochib bergan. Davriy nashrlar urush bilan bog‘liq faqat harbiy xabarlarni emas, balki ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, xalqning ruhiy holati va iqtisodiy qiyinchiliklarni ham yoritgan. Shu bois, ularning axborot tarqatishdagi roli bilan bir qatorda, jamoatchilik fikrini shakllantirish va xalqni ma‘naviy tayyorlashdagi o‘rni ham e‘tiborga molikdir.

**METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI.** Ikkinchi jahon urushi davrida Xorazm hududidagi davriy nashrlarda urushga bo‘lgan munosabatni o‘rganish tarixiy-ijtimoiy, kontent tahlili, diskursiv tahlil va sotsial-psixologik yondashuvlarga asoslanadi.

Ikkinchi jahon urushi yillariga oid bir qancha ilmiy ishlar nashr qilingan bo‘lsada, o‘sha davr ruhini aks ettiruvchi davriy matbuot materiallari haqida tarix fanlari doktori R. Shamsutdinovning “Ikkinchi jahon urushi va front gazetolari” asarida ma‘lumotlar uchraydi.[1]

Bundan tashqari aynan Xorazm viloyati davriy matbuotga tegishli materiallar Sh.Allaberganov va F.Jumaniyazovalarning tadqiqotlarida keltirilib o‘tilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Ikkinchi jahon urushi yillarida davriy nashrlar axborot manbasi sifatida muhim rol o‘ynagan. Urush davridagi asosiy vazifalardan biri xalqni urushdagi voqealardan xabardor qilish va ularning ruhiyatini ko‘tarish edi. Xorazm viloyatida bu davrda 2 ta viloyat va 5 ta tuman gazetasi faoliyat olib borgan.[2] Ular orasida, ayniqsa, “Xorazm haqiqati” gazetasi urushning ijtimoiy hayotga ta‘sirini yoritishda asosiy nashrlar sifatida ajralib turgan. Bu nashrlar orqali xalqning urushga bo‘lgan munosabati, mehnatkashlarning fidoyiligi va askarlarning jasorati haqida ma‘lumotlar tarqatilgan.

Davriy nashrlar harbiy-siyosiy axborot tarqatish vositasiga aylangan. Urush voqealari haqida tezkor xabarlar berilib, dushmanning mag'lubiyati haqidagi xabarlar aholining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, mehnatkashlarning jasoratli mehnati haqida maqolalar chop etilib, bu xalqning birdamligini mustahkamlashga xizmat qilgan. "Xorazm haqiqati" gazetasining bir sonida shunday maqola keltirilgan: "Vatanimizning ozodaligi va mustaqilligi uchun xalqimiz olib borayotgan ulug' vatan urushi frontlarida kun sayin yangidan-yangi qaxramonlar chiqarmoqda. Jonajon sovet xukumati, biz sovet otalari tarbiyalab vayaga yetkazgan. O'g'illarni nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashdagi botirlik, jasurlik va shavqatliliigi uchun munosib ravishda taqdirlamoqda. Yaqinda, markaziy va maxalliy gazetalarda SSSR Oliy soveti Prezidiumining "Qizil Armiyaning generallari, ofitserlari va sejantrlari sostavlariga Sovet ittifoqi qaxramoni unvoni berish haqida" gi 1943 yil 27 avgust farmoni bosilib chiqdi. Men bu farmodan o'g'lim, serjant Gataulla Solixovga Sovet ittifoqi Qaxramoni unvonini berilgani xamda Lenin ordeni va "Oltin Yulduz" medali topshirilganini o'qib bildim. Jonimdan ham ortiq ko'rgan farzandim haqida bu kabi ulug'vor xushxabar eshitib boshim ko'klarga yetdi. O'g'limning botirligini va vatanga qaxramon farzand yetishtirib berishdagi mening otalik tarbiyaviy mexnatimni taqdirlagan sovet xukumatidan ming qatla minnatdorman"[3]. Bundan ko'rinib turibdiki Ikkinchi Jahon Urushi davridagi har bir erishilgan g'alaba va askarlarning taqdirlanishi, shuningdek, boshqa muhim axborotlar o'sha davrdagi nashrlarda keng yoritib borilganidan dalolat beradi.

Urush davrida matbuot axborot tarqatishdan tashqari, ijtimoiy-siyosiy boshqaruv vositasi sifatida ham ishlatilgan. Har bir yangilik, har bir xabar xalqni ruhlantirish, ularni maqsad sari yo'naltirish maqsadida aniq rejalar asosida tarqatilgan. Askarlarning qahramonligi, front ortidagi mehnatkashlarning yutuqlari, urushdagi g'alabalar haqida xabar berish orqali ijtimoiy barqarorlikni saqlash maqsad qilingan.

Urush davrida erkaklarning frontga safarbar qilinishi tufayli ishlab chiqarish jarayonida ayollar va bolalar mehnatidan keng foydalanishga to'g'ri keldi. Xorazmda ayollar paxta terimida, zavod va fabrikalarda ishlashga jalb qilindi. Davriy nashrlarda xotin-qizlarning fidoyiligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faoliyati va ularga qaratilgan davlat ko'magi haqida ko'plab maqolalar chop etilgan.

Oziq-ovqat taqchilligi, oziq-ovqat kartochkalari tizimining joriy etilishi ham urushning iqtisodiy oqibatlaridan biri bo'ldi. Xorazm viloyatida oziq-ovqat taqsimotini adolatli tashkil etish masalasi muhim bo'lib, bu mavzuda nashrlarda ko'plab maqolalar e'lon qilindi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish, ichki rezervlarni safarbar qilish va iqtisodiy turg'unlikka qarshi kurash choralarini matbuot orqali targ'ib etilgan. "Xorazm haqiqati" gazetasining 26-sentabrdagi sonida o'sha paytdagi Xorazm soveti ijroyi komitetining qarori bosib chiqariladi: "1943 yilgi paxta xosilini saqlash va yong'in xavfiga qarshi choralar haqida Mexnatkash deputatlari Xorazm oblast soveti ijroia komitetining majburiy farmoyishi 1943 yil 6 sentyabr. 1943 yilgi paxta xosilini talon taroj qilinishdan va yong'in xavfidan saqlash maqsadida mexnatkashlar deputatlari Xorazm oblast soveti ijroia komiteti "Oblast, rayon ijroiya komitetlari, shaxar, qishloq va sektor qarorlari tomonidan farmoyishlar chiqarish va chiqarilgan farmoyishlarni buzganlarni ma'muriy javobgarlikka tortish haqida" gi qarorning 2-nchi modda "b" punkitiga muvofiq qaror qildi."[4]

Ushbu farmoyishdan ko‘rinib turibdiki, urush yillarida har bir soha, xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Paxtaning o‘sha yillardagi ahamiyatini hisobga olsak, bu nafaqat iqtisodiy resurs, balki urushga moddiy yordam ko‘rinishidagi vosita sifatida qaralgan.

O‘sha davrdagi gazetalarda qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlarga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Xususan “Xorazm haqiqati” ning 22-avgustdagi sonida quyidagi mazmundagi maqola chop etilgan: “1942 yilga kelib, oblastda ekin maydonlar ancha ko‘paydi. Kolxozlarda kuzgi bug‘doy ekiladigan yer maydoni xam jiddiy ravishda kengaydi. Vatan urushi yillari ichida kuzgi bug‘doy ekiladigan yer maydoni 1939 yildagiga nisbatan 60 baravarga ko‘paydi. Irrigatsiya qurilishlari, ayniqsa Toshsaqa magistrali oblastidagi chig‘ir va nasoslar bilan sug‘oriladigan yer maydonining asosiy qismini oyoqdan sug‘orishga imkon berdi.

Yaqindagina 1939 yilda oblastimizdagi ekin maydonining 73 protsenti chig‘ir va traktor nasoslari orqali va faqat 27 protsentigina oyoqdan suv ichar edi. 1941 yilga kelib esa axvol butunlay o‘zgardi. 1941 yilda Xorazmdagi ekin maydonining 91 protsenti oyoqdan sug‘orildi. Ekin maydonlarini oyoqdan sug‘orishga ko‘chish, sug‘orishda band bo‘lgan ishchi kuchi va ish xayvonlari xamda material qismlarni boshqa ishlarda foydalanish imkoniyatini tug‘dirdi. 1939-1942 yillar davomida 16.556 chig‘ir chetga chiqarildi va sug‘orish davrida bu chig‘irlarda band bo‘ladigan 31 ming tuya yoki ot boshqa dala ishlariga ko‘chirildi.

Nasos stansiyalarining soni 4 marta kamaydi. Buning natijasida 1939-1942 yillar davomida 3 ming 687 tonna yonilg‘i tejaldi. Irrigatsiya sistemalarini tozalash usuli-qozuvning xajmi kam deganda ikki yarim-uch baravariga qisqardi.”[5] Mazkur maqoladan ko‘rinib turibdiki, urush yillari sharoitida Xorazmda dehqonchilik va irrigatsiya tizimining sezilarli darajada isloh qilinganini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, oyincha sug‘orish usuliga keng o‘tilgani nafaqat texnik yengillik, balki iqtisodiy va mehnat samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan muhim strategik qadam bo‘lgan.

Nashrlarda chop etilgan maqolalar va axborotlar tashviqot va targ‘ibot vositasi sifatida xizmat qilgan. Davriy nashrlarda yoritilgan qahramonlar misolida mehnatkashlar fidoyiligi ko‘rsatib berilgan.

**Xulosa.** Xorazmda Ikkinchi Jahon Urushi davrida chop etilgan gazeta va jurnallarning urushga bo‘lgan munosabati katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu nashrlar faqatgina frontdagi g‘alabalar va jangovar muvaffaqiyatlarni yoritish bilan cheklanmay, balki aholining ruhiy holatini ko‘tarish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda ham muhim rol o‘ynagan.

Matbuot urush davrida odamlarni xabardor qilish bilan birga, ularning ruhini ko‘tarish, ishonch va umid uyg‘otish, shuningdek, front ortidagi tinchlikni saqlashda muhim vositaga aylangan.

## REFERENCES

1. Rustambek Shamsutdinov. “Ikkinchi jahon urushi va front gazetolari”.2017
2. Атамуратова, Д.Р (2022). Иккинчи Жаҳон Уруши Йилларида “Хоразм Ҳақиқати” Ҳамда “Хорезмская Правда” Газеталарининг Вилюят Адабий – Маданий Ҳаётидаги Аҳамияти (1941–1945 Йиллар)

3. Хоразм хақиқати 22 сентябрь 1943 йил № 191 (4501)
4. Хоразм хақиқати 26 сентябрь 1943 йил № 194 (4504)
5. Хоразм хақиқати 22 август 1943 йил № 169 (4479)